

O'zbekiston Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti
Ingliz filologiyasi fakulteti

SIDDIQOVA ZARINA

Mavzu: Ingliz va o'zbek tillarida yordamchi fe'llar
tipologiyasi

Mutaxassislik: 5220100

Ilmiy rahbar: f.f.n. Sh.S. Ashurov

Bitiruv malakaviy ish ingliz tili
leksikasi va stilistika kafedrası
majlisida muhokama qilindi va
himoyaga tavsiya etildi
Bayon №__ __ may, 2011 yil



Samarqand - 2011

M u n d a r i j a

| | |
|--|----------|
| Kirish | 3 |
| Bob I. Fe'l haqida umumiy tushuncha..... | 6 |
| 1.1. Fe'llarning leksik-semantik guruhlanishi..... | 6 |
| 1.2. Ingliz va o'zbek tillarida fe'l tipologiyasi | |
| Bob II. Yordamchi fe'llar va ularning qardosh bo'lmagan tillardagi ifoda vositalari | |
| 2.1. Inglizcha yordamchi fe'llarning o'ziga xos leksik - grammatik xususiyatlari | |
| 2.2. O'zbekcha yordamchi fe'llarning o'ziga xos leksik - grammatik xususiyatlari | |
| Xulosa | |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. | |

KIRISH

Hozirgi kunda chet tillarni o'rganish va o'rgatishga katta e'tibor qaratilayotgan bir paytda tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ishlar ham o'z ahamiyati va salohiyati bilan ajralib turadi. Shunday ekan, tilshunoslik fani ham kelajakdagi yosh tilshunoslar oldiga dolzarb masalalar yechimini topish, zamon talablariga javob beradigan darajadagi ulkan ishlarni amalga oshirish singari o'ta mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Ma'lumki, til jamiyatning qay darajada taraqqiy etganligini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos ko'zgu hisoblanadi. Xalqning millat darajasiga ko'tarilishida, shu xalqni tashkil etuvchi kishilarning orzu-maqсадlar yo'lida jipslashishida, shubhasiz, tilning roli beqiyosdir. Mamlakatimizda ham milliy mustaqillikka erishish uchun qilingan haakatlarning debochasida aynan til masalasi turganligini hammamiz yaxshi bilamiz.

Darhaqiqat, faqat mustaqillik tufayligina o'zbek tili davlat miqiyosidagi tilga, boshqa davlatlar bilan muzokaralarda qo'llaniladigan, qonunlar yaratiladigan, ilmiy tadqiqotlar yoziladigan tilga aylandi. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «tilshunoslik sohasidagi ilmiy izlinishlar, avvalambor, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va uning qo'llanish sohasining ancha kengaytirilgani, xalqaro munosabatlarda ishlatiladigan tillar qatoriga kiritilishi keyigi yillarning bu boradagi ulkan yutug'idir»¹

Mavzuning dolzarbligi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi ingliz tili fe'llariga xos kategoriyalarni struktur-semantik jihatdan tavsiflashdan iborat ekanligi bilan izohlanadi. Fe'l so'z turkumi boshqa so'z turkumlardan grammatik va semantik xususiyatlarining xilma-xilligi, murakkabligi hamda boshqa shu kabi xususiyatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Bunday xususiyatlarni chet tillaridan ingliz tili misolida ko'rib chiqish ingliz tilidagi fe'llarga xos xususiyatlarni chuqur o'rganishga, unga xos lingvistik mohiyatni tavsiflashga, qolaversa, ularni badiiy matnlarda o'qib tushunish jarayonida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ingliz tili grammatikasi muammolari, shu jumladan undagi fe'l masalasi ko'pchilik grammatiklar

¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Тошкент : 1995. – Б. 55.

tomonidan har tomonlama ishlab chiqilgan. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, inglizcha fe’llarga xos grammatik kategoriyalar hamon tadqiqotchilar e’tiborida bo’lib kelmoqda. Bu xususda bir qancha tilshunos olimlar, jumladan, V.D. Arakin, E.Benvenist, V.G.Gak, B.A.Ilish, I.I. Memjaninov, T. Milevskiy, A. Martine, Yu.V. Rojdestvenskiy, A.I.Smirniskiy, F.de Sossyur, L.Tenyer, A.Campbell, N.Chomsky, A.de Groot kabi tilshunoslarining olib borgan ishlarida tadqiq qilingan. Biz o’z bitiruv malakaviy ishimizda ularning bu xususdagi fikr va mulohazalarini umumlashtirgan holda fe’llarga xos grammatik kategoriyalarni o’rganib chiqishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishning oldiga qo’yilgan asosiy maqsad ingliz tilidagi fe’llarga xos grammatik kategoriyalarni talqini qilishdan iborat bo’lib, bu xususda quyidagi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratildi:

- Fe’lning alohida so’z turkumi sifatidagi tasnifi;
- Fe’llarda grammatik kategoriyalar ifodasi;
- Fe’llardagi grammatik kategoriyalarning ifodalanish xususiyatlari;
- Fe’llardagi grammatik kategoriyalarning sintagmatik va paradigmatic xususiyatlari;
- Fe’llardagi grammatik kategoriyalarning struktur–sintaktik xususiyatlari

Tadqiqot obyekti va predmeti. Hozirgi zamon ingliz tili grammatikasi va undagi fe’l so’z turkumi tadqiqot obyekti, undagi grammatik kategoriyalar esa uning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari. I.A. Karimovning chet tillarni yoshlarga o’rgatishning keng imkoniyatlari xususidagi ishlariga e’tibor qaratildi. Barxudarov L.S., Shteling D.A. Yeroxina T.V Kuveneva A.N. Silniskiy G.G. Smirniskiy A.N. va boshqa shu kabi tilshunoslarning grammatika, leksik-semantika, sintaksis borasidagi nazariy qarashlari tadqiqotning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishda tasviriy, distributiv, statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Himoya olib chiqiladigan asosiy holatlar quyidagilardan iboratdir:

- Fe'l alohida so'z turkumi sifatida o'ziga xos leksik-semantik tasnifga ega.
- Fe'l murakkab grammatik kategoriyalar ifodasini o'zida aks ettiruvchi so'z turkumidir.
- Fe'llar so'z turkumiga xos grammatik kategoriyalar xilma-xilligi bilan ajralib turadi.
- Fe'lga xos grammatik kategoriyalarning sintagmatik va paradigmatic xususiyatlari ularning asosiy mezonlardan biri sanaladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ingliz grammatikasidagi fe'llar xos kategoriyalarning grammatik, semantik va struktur xususiyatlariga xos qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradigan umumtilshunoslik tavsifiga hissa qo'shildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Ingliz tilida fe'llarga xos grammatik kategoriyalarning semantik, struktur, grammatik qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradigan farazlar umumlashtirildi. Xususan, bitiruv malakaviy ishida fe'llarga xos grammatik kategoriyalar tavsiflandi va ularning o'ziga xos xilma-xilligi namoyon etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishdagi tahlil natijalari asosida nazariy, amaliy va qiyosiy grammatika fanlarini o'qitishda, qolaversa chet tilarini o'qitish va o'rganish jarayonlarida ham foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi qo'yilgan vazifalarning ketma-ket izchilligiga asoslanib, u kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

BOB I

FE'L HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

1.1. Fe'llarning leksik - semantik guruhlanishi

Fe'l - harakat, holat yoki jarayonni ifodalab, zamon, aspekt, mayl, nisbat, perfekt, modallik va boshqa shu kabi grammatik kategoriyalarga ega bo'lgan so'z turkumidir. Fe'llar harakat ma'nosini bildiruvchi so'zlardir. Grammatikada harakat tushunchasi juda keng bo'lib, u uxlamok (*to sleep*), yotmoq (*to lay*), turmoq (*to stand*) kabi fe'llar ifodalaydigan holatlarni, qo'rqmoq (*to afraid*), zavqlanmoq (*to enjoy*) kabi fe'llar bildiradigan biologik jarayonlarni shu kabi hodisalarni o'z ishiga oladi. Bulardan har birining o'ziga xos xususiy tomonlari bo'lishi bilan birga ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan tomoni ham bor, ya'ni bularning hammasi zamon bilan bog'liq holda yuz beruvchi hodisa hisoblanadi. Shuning uchun bu harakat – hodisalarni bildiruvchi so'zlarning hammasi nima qilmoq? so'rog'iga javob bo'ladi.

Har ikkala tilda ham fe'llar morfologik, leksik – semantik, leksik – grammatik xususiyatlariga ko'ra boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi.

O'zbek tilidagi fe'llar leksik – grammatik xususiyatlariga ko'ra mustaqil fe'llar va yordamchi fe'llarga bo'linadi.¹ Mustaqil fe'llar harakatni bildiradi, mustaqil ma'noga ega bo'lgan va gapda uning biror bo'lagi vazifasida kela oladi. Masalan: Topshirilgan fazifa muddatidan ilgari bajarildi.

Nafaqat o'zbek tilida balki ingliz tilida ham mustaqil fe'llarning ot, sifat, ravish turlariga xos xususiyatlariga ega bo'lgan harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shakllari bor.

Masalan: Ishlash foydali (*working is useful*) yordamchi fe'llarga ega harakat bildirmaydi, mustaqil ma'no ifodalanmaydi.

Ular turli grammatik ma'no ifodalash uchun yoki boshqa vazifada qo'llaniladi. Yordamchi fe'llar asosiy xususiyatlariga qarab, so'z yasash uchun xizmat qiluvchi va bog'lanma fe'l vazifasini bajaruvchi yordamchi fe'llar, fe'llarga birikib turli qo'shma ma'no ifodalovchi fe'llarga ajratiladi.

Masalan: *qil, bo'l fe'llari, boshla (yoza boshladi), chiq (o'qib chiqdi)*
B.A.II'ish fe'llarning semantikasiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi.

1) Tugal fikrini anglatib, vositasiz to'ldiruvchini talab etadigan fe'llar.

¹ Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Т.: «Фан», 1975. – Б. 365.

2) Tugal fikr anglatib ma'noni izohlovchi vositasiz to'ldiruvchi talab etishi mumkin bo'lgan gaplar.

3) Tugal ma'no anglatmay vositasiz to'ldiruvchi bilan qo'llangan fe'llar.¹

Fe'l asosan shaxs faoliyatini ko'rsatib keladigan so'z turkumidir. Bunday ta'rif har ikkala tilda ham ya'ni ingliz va o'zbek tillariga xos bo'lib, buni quyidagi misollarda ham ko'rish mumkin:

Lanny Swarts and Young Mako are coming here tonight. (P. Abrahams)

They set down, very shaky, and looked at each other.

O'zbek tilida ham quyidagi misolni keltirishimiz mumkin.

Masalan; *O'rta maktabni a'lo baholar bilan bitirdi.*

Bu misollarda ajratib ko'rsatilgan so'zlar fe'l turkumiga oid bo'lib, ular gapdagi sub'ektning faoliyatini ko'rsatib kelayapti. Fe'llar boshqa so'z turkumlari kabi morfologik tuzilishiga ko'ra *sodda, yasama va qo'shma fe'llarga* bo'linadi.

Sodda (yoki tub) fe'llar (*Simple (or root) verbs*) bir o'zakdan iborat bo'lib, sodda fe'llar tarkibida qo'shimcha yoki old qo'shimcha bo'lmaydi.

Masalan: ingliz tilida: *to come, to see, to work, to bring, to hate, to grow.*

O'zbek tilida: *kelmoq, ko'rmoq, ishlamoq, o'smoq.*

Fe'l zamon, shaxs nisbat kabi gramatik kategoriyalarga ega bo'lganda, kategorial gramatik suffikslar uning strukturasi o'zgartirmaydi, ya'ni fe'llar sodda fe'lligicha qoladi.

Masalan: ingliz tilida: *work- worked- works- working.*

o'zbek tilida: *ishlamoq, ishladi, ishlayapti.*

Konversiya yordamida sodda otlardan yasalgan fe'llar ham sodda fe'l hisoblanadi.

Masalan: *to eye - qaramoq, kuzatmoq*

*to hand – uzatmoq, bermoq.*²

Yasama fe'llar (*Derived verbs*) o'zak va suffikslarning qo'shilishidan yasaladi. Bunda suffikslar affiks va prefikslar tarzida biror boshqa so'z turkumiga

¹ Ильш Б.А. Современный английский язык. – М.: “Прогресс” 1948. – С. 199.

² Бўронов. Ж.Б. Хошимов. Ў, Исматуллаев. Х “English grammar” – Т.: “Ўқитувчи”, 1973. –Б. 119.

Bu misollardagi *to laugh-kulmoq*, *to ask-so'ramoq*, *to turn – qayrilmoq*, *to avoid–ko'zini olib qochmoq*, *to see–ko'rmoq* fe'llari aniq yoki predikativ shaklda kelayapti.

Harakat yoki holatni umuman ko'rsatish bilan birga qisman belgi yoki predmetlashganlikini ko'rsatib keluvchi fe'l shakllari fe'llarning noaniq (shaxssiz), (Non-finite forms of the verb), ya'ni predikativ bo'lmagan shakllari deyiladi. Fe'ning noaniq shakllari harakat yoki holatni gapning egasi bilan bog'lab emas, balki undan ajralgan holda, o'z–o'ziga ko'rsatib kelishi mumkin. Fe'ning noaniq shakllari odatda shaxs, son, zamon, mayil kabi kategoriyalarni to'g'ridan – to'g'ri ko'rsatmaydi. Fe'ning noaniq shakllariga: infinitiv (Infinitive) harakat nomi, gerundiy (Gerund) hamda sifatdosh (Participle) kiradi.

I have come here to speak to you. (Men bu erga siz bilan gaplashgani keldim)

Bu misolini oladigan bo'lsak, bu gapda infinitiv maqsad holi vasifasida kelayatganligini ko'rishimiz mumkin. *We discussed different methods of teaching foreign languages. (Biz xorijiy tillarni o'qitishning turli uslublarini muhokama qildik)* misolida esa usbu gapdagi gerundiy aniqlovchi vazifasida qo'llanilgan. Fe'llar o'tgan zamon shakllarining qay usulda yasalishiga ko'ra to'g'ri (regular) va noto'g'ri (Irregular verbs) fe'llariga bo'linadi. O'tgan zamon va sifatdosh II shakllari - ed suffiksi yordamida yasalgan fe'llar to'g'ri fe'llar deyiladi. Masalan:

to turn – turned

To mark – marked

To start – started

O'tgan zamon va II sifatdosh formasi - ed suffiksini olmasdan boshqa turli yo'llar bilan yasalgan fe'llar noto'g'ri fe'llar deyiladi.

Masalan: *to write – wrote – written;*

To sink – sank – sunk;

To tell – told – told;

To show – showed – shown;

2.Ingliz va o'zbek tillarida fe'l tipologiyasi

Fe'l boshqa so'z turkumlariga qaraganda turli xil kategoriyalarga egaligi bilan ajralib turadi. Ingliz va o'zbek tillarida fe'l grammatik kategoriyalarga boy so'z turkumi hisoblanadi, lekin har ikkala tillarda fe'lning kategoriyalari bir-biridan farq qiladi. Ba'zan o'xshashlik tomonlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Ingliz tilida fe'lning quyidagi grammatik kategoriyalari mavjud: Perfekt (korrelyatsiya) kategoriyasi (*The category of perfekt (correlation Order)*), nisbat kategoriyasi (*The category of voice*), shaxs kategoriyasi (*The category of person*), son kategoriyasi (*The category of number*), zamon kategoriyasi (*The category of tense*), aspekt (tus, tarz) kategoriyasi (*The category of aspekt*), mayl kategoriyasi (*The category of mood*).

Hozirgi o'zbek tilida fe'lga xos grammatik kategoriyalar quyidagilarni tashkil etadi: *Daraja, bo'lishli - bo'lishsizlik, mayl, zamon, shaxs - son*.¹

Fe'llarning grammatik kategoriyalari fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarning sintetik yoki analitik formalarini o'zaro qarama - qarshi qo'yish vositasida ifodalanadi.²

Perfekt kategoriyasi (*The category of perfect*) ish - harakatning Maklelland'lum muddat yoki vaqtdan oldin sodir bo'lishini, tugallangani yoki tugallanishini ko'rsatadi. Masalan:

I have finished my work - men ishimni tugatdim.

Perfekt kategoriyasi bo'yicha fe'l shakllari 2 xil bo'ladi.

I. perfekt bo'lmagan fe'l shakllar (*Non - perfekt verb forms*)

II. perfekt analitik fe'l shakllari (*Analytical perfect forms of the verb*)

Fe'lning perfekt bo'lmagan shakllari turli kategoriyalarda perfekt shakllarga qarama - qarshi qo'yiladi, ya'ni oppozitsiyaga kirishadi.

Fe'lning perfekt shakli to have fe'lining II sifatdoshga qo'shish yo'li bilan yasaladi. Masalan: *I have come; I had come; I shall have come;*

Perfekt shakl to be fe'lini II sifatdoshga qo'shish yo'li bilan ham yasalishi mumkin va bu usul bilan yasalganda fe'l har doim o'timsiz bo'ladi.

¹ Ўзбек тили грамматикаси . Том 1 Морфология. - Т., 1966 . 445 б

² . "Бўронов .Ж.Б Хўшимов .Ў , Исмагуллаев . Х . "English grammar"- Т.,1974 , 151 б

Masalan : *His parents were gone for a fortnight's holiday*

It was all gone.

Nisbat kategoriyasi. (*The category of voice*). Grammatik ega va to'ldiruvchini ish – harakatning sub'ekti va ob'ekti bilan bo'lgan aloqasini fe'l orqali ifodalanishiga nisbat kategoriyasi deyiladi. Nisbat kategoriyasi harakatning sub'ekti va ob'ektiga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi. Bu munosabat maxsus fe'l formalari orqali ifodalanadi.

B.S . Haymovich va B.I Rogovskaya lar nisbatni 5 ga bo'lishgan: aniq nisbat , majhul nisbat, birgalik nisbat , o'zlik nisbat , betaraf nisbat;

Masalan: *The letter was written by me* (majhul nisbat)

I. *I write a letter* (aniq nisbat) , *They met each other* , (birlik nisbat);

II. *I washed myself* , (o'zlik nisbat); *The door is open* , (betaraf nisbat).

Nisbat kategoriyasini 5 ga bo'lishdan sabab , morfologik qatlam bilan leksik qatlamning aralashtirib yuborish natijasidir. Agar nisbat kategoriyasini leksik sathda qaraydigan bo'lsak , uning sonini yana ham ko'paytirish mumkin. Masalan: *I open the door with a key*.

Ingliz tilida nisbat kategoriyasi morfologik sathda qaralganda , fe'lning gramatik kategoriyasi hisoblanganda , faqatgina 2 ta nisbatga bo'linishi mumki: Aniq nisbat (*Active voice*); majhul nisbat (*Passive voice*)

Masalan: *The sun attracts the planets* (aniq nisbat)

(Quyosh sayyoralarni tortib turadi.)

The planets are attracted by the sun.(Majhul nisbat)

(Sayyoralar quyosh tomonidan tortiladi.)

Deyarli barcha olimlar ingliz tili fe'l sistemasida ikkita nisbat bor deb hisoblashsalar, Poutsma , Jigadlo B.N ingliz tilida 2ta nisbat bor desa ,

Whitehall 4 ta nisbat bor deydi¹ . G. Suit nisbatni quyidagicha ta'riflaydi:

“ By voice we mean different grammatical ways of expressing the relation between a transitive verb and its subject and object .”

¹ Бўронов .Ж.Б . “Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси.- Т., 1973й, б - 185

Barxudarov L.S; Shtelling D.A: “fe’ning nisbat kategoriyasi ish – harakatning bajaruvchisiga nisbatan turlicha yo’nalishni ifoda etadi.” deb ta’riflaydi.¹

Hozirgi o’zbek tilida fe’ning besh xil nisbat shakli mavjud: aniq nisbat, o’zlik nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbat, majhul nisbat. Har ikkala tildagi nisbat kategoriyasi yasaliishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ingliz tilidagi majhul nisbat o’ziga xos fe’l shaklaridan yasaladi. O’zbek tilida esa aniq nisbatdan tashqari barcha nisbatlar affiksasiya usuli orqali yasaladi.

Masalan: *The letter was written by him.*

Xat u tomonidan yozilgan

Bu misolarning ingliz tilidagi shaklida majhul nisbat *to be* va PII shakllaridan yasalgan. O’zbek tilidagi gapda majhul nisbat *-il* affiksi orqali yasalgan. Bundan tashqari o’zbek tilidagi o’zlik, birgalik, orttirma nisbatlar ham affiksasiya usuli orqali yasaladi.

Mayl kategoriyasi (*The category of mood*).

Fe’ldan anglashilgan ma’noning voqellikka bo’lgan munosabatini ifodalovchi gramatik kategoriya mayl kategoriyasi deyiladi.

Ingliz tilida quyidagi mayl kategoriyalari mavjud: aniqlik mayli (*the indicative mood*), buyruq mayli (*the imperative mood*), noaniq mayli (*Oblique mood*).

I. O’zbek tilida maylning 5 turi mavjud: buyruq - istak mayli, shart mayli, maqsad mayli, shartli mayl, ijro mayli.²

II. Aniqlik mayli aniq harakatni ifodalab, har qanday zamon va nisbatda ishlatilishi mumkin.³ Masalan: *I am reading an interesting book now.*

This letter was written by my mather.

Buyruq mayli buyruq va talabni ifodalaydi. Masalan:

Read, please; Don’t read, please.

Let me go out; Don’t let me go out.

¹ Бархударов .Л.С и др “грамматика английского языка” . - М. ,1965, б.145

² Ўзбек тили грамматикаси . Том 1 Морфология. - Т., 1966 б 463.

³ Shevchenko M.A, Sitchinava E.Sh “ A manual in practical grammar “. - S.,2004 . p. 7

The Subjunctive mood (Shart mayli) noreal harakatni ifodalab , so'zlovchining voqea – xodisaga bo'lgan his – hayajonli munosabatini ifodalashda ishlatiladi. Masalan:

He suggested that the discussion of the quistion be postponed.

If he were here , he would help us.

M. Ganishna subjunctive moodni 3 ga bo'lish kerak degan fikrni bildirsa, Barxudarov va Shtellinglar subjunctive mood ni 2 ga bo'lishadi.

1. Shart mayli (*conditional*);

2. Shartlangan mayl (*conditioned*);

Masalan : *If he were you he would do it.*

If he had done his work in time we should go to the theatre now.

O'zbek tilida esa shart mayli - sa qo'shimchasini va shaxs – son qo'shimchalarini qo'shilishidan hosil bo'ladi. Masalan:

Sen ham ochilsang , shu xilda yayraysan, gulim.(Yashin)

Shaxs – son kategoriyasi. (*The category of person and number*)

Fe'l shakllari paradigmasi vositasida harakat yoki jarayonning so'zlovchiga bo'lgan munosabatini ko'rsatish shaxs kategoriyasi deyiladi.

Fe'ning shaxs kategoriyasi 2 ta shakl ya'ni , - (e)s qo'shimchasini olgan shakl va - (e)s qo'shimchasini olmagan shakl orqali yasaladi.

Masalan: *Write – writes; come – comes.*

- (e)s qo'shimchasini olmagan shakl belgisiz shakl hisoblanib ,

I va II shaxs birlik va ko'plikni , III shaxs ko'plikni anglatadi. - (e)s qo'shimchasini olgan shakl belgili bo'lib , III shaxs birlikni ifodalaydi.

Masalan:

I (we, you ,they) come

He, she, it comes

Hozirgi ingliz tilidagi fe'llarda shaxs kategoriyasi to'la ko'rsatilmaganligi sababli , gapda kishilik olmoshlarining ishtirok etishi shart. O'zbek tilida kishilik olmoshlarining ishtirokisiz ham fe'l shakllari yordamida ish – harakatning qaysi shaxs tomonidan bajarilganligini bilib olish mumkin , shuning uchun o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilganda ingliz tilida albatta kishilik olmoshlari ishtirok etadi. Masalan:

(men) ishlayman – *I work*;

(u) o'qiydi – *he (she , it) studies*;

(biz) uxlaymiz – *We sleep* ;

Son kategoriyasi fe'l shakllari orqali eganing ko'plik yoki birlikda ekanligini ko'rsatadi. Son kategoriyasi fe'llarning hozirgi zamon shakllarida birlikda , ya'ni III shaxsda - (e)s suffiksi yordamida ifodalanadi. Masalan:

We speak - he speaks :

O'zbek tilida esa shaxs – son ma'nolari fe'lga xos grammatik ma'nolar bo'lib , bu ma'nolar bir- biriga qiyosan olinishi mumkin bo'lgan bir necha shakllar orqali ifodalanadi.¹ Masalan:

keldim – I shaxs , kelding – II shaxs .

Aspekt kategoriyasi.(*The categories of tense and aspect*)

Zamon kategoriyasi fe'ldan anglashilgan ish - harakatning yuzaga chiqish paytini ko'rsatadi . Ingliz olimi Jon milton “ 35 ta zamon shakli bor, ingliz tilida” degan fikrni bildirgan. Har ikkala tilda ham 3ta gramatik zamon shakli mavjud: hozirgi zamon (*Present tense*),o'tgan zamon (*Past tense*),kelasi zamon (*Future tense*).

Hozirgi zamon shakli ish – harakatning nutq so'zlanib turgan payt bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Masalan:

My brother studies in the second course

Now he is at home.

Ukam II – kursda o'qiydi. Hozir u uyda.

O'tgan zamon shakli ish – harakat yoki jarayonning nutq so'zlanib turgan paytdan avval yuzaga chiqqan yoki chiqmaganligini bildiradi.

Masalan: *Yesterday I read this book.*

Kecha men bu kitobni o'qigan edim.

Kelasi zamon shakli ish – harakat yoki jarayonning nutq so'zlanib turgan paytdan keyin yuzaga chiqqanini ifodalaydi. Masalan:

“ You will come?” Sarrie sobbed. (P.Abrahams)

¹ Ўзбек тили грамматикаси . Том 1. Морфология. - Т., 1966. 6.504.

Aspekt fe'llarida ish – harakatning yuzaga chiqish xarakterini , ya'ni ish – harakatning boshlanishi , davom etishi , tugallanishi va takrorlanishini bildiradi. Aspekt masalasi bo'yicha hozirgi zamon inglizshunoslari 2ta g'oyani ilgari surishadi.

1) Leningrad maktabidan I. P Ivanov “ aspekt kategoriyasini zamon kategoriyasi bilan bog'lab, a) ish – harakatning tugallanganligi (perfect); b) ish – harakatning tugallanmaganligi (non – perfekt)ga bo'lish kerak” degan fikrni bildiradi.

2) Moskva maktabining vakili L.S.Barxudarov aspekt kategoriyasini zamon kategoriyasiga bog'lab, *continuous* and *non continuous* ga bo'linadi .

Keyinchalik nemis tilidagi aspekt kategoriyasini fe'ning leksik ma'nosiga bo'g'lab , 3 ko'rinishga bo'ladi .

I. ish – harakatning boshlanishini ifodalovchi fe'llar;

II. ish – harakatning davom etishini ifodalovchi fe'llar;

III.ish – harakatning to'xtashini ifodalovchi fe'llar.

Masalan: *He reads* - *He is reading* - *He well read*.

Fe'ldan anglashiladigan ma'noning boshqa predmetga qaratilganligini biror ob'ektga ko'chganligini ko'rsatish va shu harakatning yuzaga kelishi uchun boshqa predmetning ishtirok etishiga qarab fe'llar o'timli (*Transitive*) va o'timsiz (*Untransitive verbs*) fe'llarga bo'linadi.

O'zidan keyin gramatik ob'ekt vazifasida keluvchi so'zga ko'chganligini ko'rsatuvchi fe'llar o'timli fe'llar deyiladi . Masalan:

to send – yubormoq, jo'natmoq.

to give – bermoq,

Fe'ldan anglashilgan ish – harakat to'g'ridan - to'g'ri gramatik ob'ektga o'tmasdan faqat gramatik sub'ektning o'zigagina bog'liqlikni ko'rsatuvchi fe'l o'timsiz fe'l deyiladi.

O'timsiz fe'llar o'zidan keyin vositasiz to'ldiruvchini talab qilmaydi.

Masalan: *to laugh* – kulmoq, *to go* – bormoq, *to live* – yashamoq,

to die – o'lmoq.

Fe'ning o'timli - o'timsizlikka aylanishiga qarab , fe'llar birlamchi o'timli-birlamchi o'timsiz , ikkilamchi o'timli – ikkilamchi o'timsizlarga bo'linadi.

Birlamchi va ikkilamchilik bu ma'noning fe'l negizida bo'lish – bo'lmasligiga qarab aniqlanadi. Turli tillarda simantikasiga ko'ra ba'zi fe'llar o'timlilikni , ba'zilar o'timsizlikni anglatadi. Masalan :

Ingliz tilida: *come ,live, sleep;*

O'zbek tilida: *kelmoq, yashamoq, uxlamog,*

va boshqa bir qancha fe'llar birlamchi o'timsiz fe'llardir, ular egani to'g'ridan- to'g'ri aniqlaydi. Kill, cut, take, love, o'ldirmoq , kesmoq , olmoq, sevmog kabi fe'llarda o'timlilik fe'l negizi bilan ifodalanadi .

O'timsiz fe'llar gapning egasi bilan bevosita aloqador bo'ladi. O'timli fe'llar esa avval to'ldiruvchi bilan , keyin ea ega bilan birikadi.

O'timli va o'timsiz fe'llar haqida ko'pgina olimlarimiz quyidagi fikrlarni bayon etishgan: V.N.Jigadlo va boshqalar “Hozirgi ingliz tilida o'timli fe'llarga faqat predlogsiz to'ldiruvchi bilan birikadigan fe'llar , o'timsiz fe'llarga bunday to'ldiruvchini talab etmaydiganlari ta'luqlidir” deyishadi.¹

Barxudarov L.S , Shtelling D.A ham predlogsiz , ham predlogli to'ldiruvchini talab etadigan fe'llarni o'timli fe'llar deyishadi.²

Masalan: *wait for – kutmoq , look (at) – qaramog, depend (on) – bog'liq bo'lmoq.*

Fe'llar sintaktik funksiyasiga ko'ra mustaqil va tobe ma'nolarni anglatib, 3 guruhga bo'linadi³.Mustaqil (national) fe'llar; to'liqsiz (Seminal) fe'llar; ko'makchi (Auxiliary) fe'llar;

Mustaqil leksik ma'noga ega bo'lib , gapda soda kesim vazifasida keluvchi fe'llar mustaqil fe'llar deyiladi. Masalan:

I shall finish my report this evening.

To'liqsiz fe'llar 2 turga bo'linadi:Bog'lovchi fe'llar ,modal fe'llar. Bog'lovchi fe'llar, asosan , kesimning turli gramatik kategoriyalarni ko'rsatib keladi.¹ Ular ot- kesim yasashda bog'lovchi bo'lib keladi. Masalan:

¹ Бўронов Ж.Б. “Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси “ – Т., 1973й, б.183

² Бўронов Ж.Б. “Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси “ – Т., 1973й, б.183

³ Ganshina .M, Vasilievskaya L.N “English grammar” Moscow Higher school Publishing house.1964 b. 135

He had left when he was fifteen.

Anglatgan ma'nosiga ko'ra majburiylik , mumkinlik, zarurlik , ishonch, hohish yoki ruxsat, taxmin, faraz qilish va shunga o'xshash boshqa ma'nolarni ifodalovchi fe'llar modal fe'llar deyiladi. Modal fe'llar harakatni ko'rsatmasligi tufayli boshqa fe'llardan semantik jihatdan farq qiladi . Modal fe'llar doimo infinitive shaklidagi asosiy fe'llar bilan birga ishlatilib , asosiy fe'llarga modallik ma'nosini qo'shadi. Masalan:

I go home – I must go home.

Uyga boraman – Uyga borishim kerak.

Modal fe'llardan keyin kelgan asosiy fe'l doim “to” yuklamasisiz ishlatiladi, ya'ni ular hamisha predikativ formada bo'ladi.

Modal fe'llar: *can (could), may (might) , must , to be able to , need , ought to* va boshqalar. Masalan:

What can I do for you .(I.K. Chesterton)

The patient is allowed to walk.(Kasallarga yurishga ruxsat berilgan.)

I just have to go to Smith's. (Men Smitlarnikiga borishim shart.)

Yordamchi Fe'llar. Mustaqil ma'noga ega bo'lmasdan, fe'lning murakkab shakllarini yasashda yordamchi fe'llar yordam beradi. Ularga quyidagi fe'llar kiradi: *to be , to have , to do , shall (should) , will (would)*

Masalan : *She is working in the garden.*

I have read the book.

Yordamchi fe'llar o'z ma'nolariga ega bo'lmaydi , ammo ingliz tili fe'llarining analitik formasini yasashda ishlatiladi .

ASOSIY QISM

YORDAMCHI FE'LLAR VA ULARNING QARDOSH BO'LMAGAN TILLARDAGI IFODA VOSITALARI

1. Inglizcha yordamchi fe'llarning o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlari

¹ Bo'ronov .J.B , Hoshimov .O' , Ismatullaev .X “English grammar” (Ingliz tili grammatikasi) –T., 1974 . b.120

Ingliz tilida yordamchi fe'llar fe'lning kichik sinfini tashkil etib, ular o'zlaridan keyin komplementni talab qiladi va egani o'zi ifodalaydigan frazaga bog'laydi. Masalan:

*My German Shepherd is ferocious
has become a timid dog.
seems
appears*

Yordamchi so'zi lotincha "copula" so'zidan olingan bo'lib "bog'lamoq" degan ma'noni bildiradi. Bu fe'llar egani o'zi ifodalayotgan frazaga ya'ni aniqroq aytadigan bo'lsak komplementga (to'ldiruvchiga) bog'laydi. Ko'pgina olimlar otlar va olmoshlarning aynan yordamchi fe'llar yodamida bog'lanishini e'tirof etganlar. Ammo, shu narsaga e'tibor berish kerakki olmosh yoki otlar aynan bir xil kelishikda bo'lishi shart. Masalan:

It is I yoki It is me

Yordamchi fe'llar (ba'zi olimlar bu fe'llarni bog'lovchi fe'llar deb ham ataydilar) o'timsiz fe'llarning maxsus sinfini tashkil qiladi. Odatda bu fe'llar o'garuvchan substantivni boshqasi bilan tenglashtiradi, aniqlashtiradi yoki birlashtiradi. U gapda egani bir – birini to'ldiruvchi kesim bilan bog'laydi. Boshqa o'timsiz fe'llar kabi yordamchi fe'llar qatnashgan gaplarda ham doimo vositasiz to'ldiruvchi ishtirik etadi. Ingliz tilida bunday fe'llarga "is" yoki "become" fe'llarining har qanday shaklini misol tariqasida olishimiz mumkin. Masalan:

The words which I have spoken into you are spirit are life.

Bu gapda shunga e'tibor berish kerakki, "words", "spirit" va "life" otlari *are* yordamchi fe'li orqali tenglashtirilayapti. Boshqacha qilib, words so'zi spirit va life so'zlariga to'g'ri mutonosibdir.

Ingliz tilida yordamchi fe'llar juda oz miqdorni tashkil etadi., lekin ularning ba'zilari juda muhim bo'lib, tilda juda ko'p qo'llaniladi. Yordamchi fe'llar gapda ega va komplementni bir –birga mustahkam bog'laydi. Bu munosabatni "bog'lash" yoki " tenglashtirish" sifatida talqin qilganimizda ham, uning to'liq ta'rifini keltirmagan bo'lamiz. Biz bu munosabatni to'liq ifoda etadigan birorta so'z topa olmagan bo'lsakda, lekin ba'zi tilshunoslar

buni “ intensiv aloqa “ deya ta’riflaydi. Balki buni misollarda ko’rsatish osonroqdir. Masalan. 1. *George Bush is President.*

2. *Ice feels cold.*

3. *Caesar became Emperor.*

4. *He seems nice.*

Bu misollardagi fe’llar o’timli fe’llarga yaqin, ya’ni , birinchi va uchinchi gaplardagi fe’llar vositali to’ldiruvchilar “ presedent” va “emperor” otlari bilan ifodalangan. Shunday qilib biz bu fe’llarni yordamchi yoki o’timsiz fe’llar deb atay olamizmi? Demak , birinchidan , ularning ma’nolari har xil . U yerda biz hech qanday harakatni ko’ra olmaymiz. Ikkinchidan , komplement ikkinchi va to’rtinchi gaplarda otli fraza bo’lib kelmayapti , u “ cold” va “nice” sifatlari bilan ifodalangan. O’timli fellar hech qachon sifatlari bilan ishlatilmaydi , ular faqat otlar bilan qo’llanishi kerak . Shuning uchun , yordamchi fe’llarda ikkinch qism vositali to’ldiruvchi deb ataladi. Ammo ingliz tilida fe’llarning kesishish kategoriyalari mavjud. Masalan:

1. *I think , therefore I am.*

2. *I am cool.*

Birinchi gapdagi “am” o’timli fe’l , ikkinchi gapdagi “ am” esa yordamchi fe’l bo’lib , lekin bu gaplardagi am ikki xil ma’noda ishlatilayapti.

Biz fe’lning o’zini gapning oxirida kesim bo’lib tugagan shaklini ham ko’rishimiz mumkin. Masalan:

The earth revolves.

The sun rises.

Ammo ba’zi vaqtlarda boshqa so’zlar bilan tugagandek bo’lib ko’rinishi mumkin. Masalan: *The sun gives – light.*

The earth is - a sphere.

Shu sababli fe’llar to’liq va to’liqsiz fe’llarga bo’linadi. To’liqsiz fe’llar yoki komplementlar kerak bo’lmaganlar yordamchi va o’timli fe’llarga bo’linadi . yordamchi fe’llar ega nima bilan ifodalanganligini ko’rsatadi . Masalan: *Fire is hot.*

We were without food.

Heat is a force.

O'timli fe'llarga harakatning ta'sirini ko'rsatish uchun to'ldiruvchilar kerak bo'ladi. Masalan: *The sun gives light*

Burn the trees.

Ingliz tilida shunday fe'llar borki, ularning asosiy funksiyasi egani boshqa ot yoki sifat bilan bog'lashdan iborat bo'lib, ular terminalogik jihatdan turlicha ataladi.

Bog'lama fe'llar (linking verbs)

Yordamchi fe'llar (copulative verbs)

O'rta yoki o'rtanchi klass fe'llari (middle verbs, middle class verbs)¹

Lekin, bunday fe'llar turli olimlar tomonidan xar-xil talqin etilgan. Masalan: R.Liz va boshqalar o'timli va o'timsiz fe'llardan farq qilgan barcha fe'llarni uchinchi guruhga kiritisa, P. Roberts va boshqalar ularni mayda guruhlarga bo'lishadi. R.Liz o'z asarida barcha bog'lama fe'llarni middle verbs guruhiga kiritisa, P.Roberts ularga cast (masalan: It cast a dollar),

Weigh (masalan: He weighs two hundred pounds), total (masalan: It totaled five hundred dollars), amount (masalan: It amounts to sixty cents), have (masalan: he has a bicycle) kabi fe'llarni kiritadi. P Roberts o'rta fe'llar guruhiga bog'lama fe'llarning bir qismini middle verbs guruhiga, qolganlarini seem class, become class fe'llar guruhiga kiritadi.²

Yordamchi funksiya bajaradigan fe'llar birlamchi yordamchi fe'llar va ikkilamchi yordamchi fe'llarga bo'linadi. Asosiy funksiyasi bog'lashdan iborat bo'lgan fe'llar *birlamchi yordamchi fe'llar* deyiladi.

Masalan: *look, appear, feel, sound, taste, smell, grow, remain, cost, total etc.*

Mustaqil leksik birlik va bog'lama fe'l funksiyasini bajaradigan fe'llar ikkilamchi yordamchi fe'llar deyiladi. Semantikasiga ko'ra yordamchi fe'llar quyidagi guruhlarga bo'linadi.

¹ Bo'ronov J.B "Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi." T-1973 "O'qituvchi" b.163

² Bo'ronov J.B "Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi." T.,1973 "O'qituvchi" b.163

- a. substantiv yordamchi fe'llar. *be, resemble, mean, lack, befall, weigh, cost, suit, last, make (to make good reading), amount, total.*
- b. Have turidagi fe'llar;
- c. Bo'lmoq, paydo bo'lmoqqa doir yordamchi fe'llar. *Be comr, remain, get, turn, go, grow.*
- d. Faraz yoki ko'rishga doir fe'llar. *Seem, look, appear, feel, sound, taste, smell.*¹

Masalan : She seems friendly.

Kopu;yativ fe'llar nisbat sistemasida alohida o'rin egallaydi.

Masalan: *Aunt Kate was making frank use of her handkerchief, and even Aunt Julia seemed moved* (J. JOUCE)

“ I want you tomorrow evening also – in fakt you way consider your evenings occupied, unless I give you leave” (D.H. LAWRENCE)

His glowed hands mere clasped behind him, and he seemed to be last In thought. (MELLS)

The stranger ran his arm, down his waistcoat, and if by a miracle the buttons to which his empty sleeve pointed became undone. (WELLS)

Yordamchi fe'llar sintaktik hususiyatiga ko'ra, mustaqil, yordamchi, bog'lovchi, modal fe'l vazifasida kelishi mumkin.

Ya'ni, yuqorida aytib o'tganimizdek bog'lovchi fe'llar anglatgan ma'nolariga ko'ra borliqni, mavjudlikni bildiruvchi fe'llar (*to be*), sezishni bildiruvchi fe'llar (*to feel*), bir holatda ikkinchi holatga o'tishni bildiruvchi fe'llar (*to become, to row, to get, to turn*) Avvalgi holatga turganligini ko'rsatuvchi fe'llar (*to remain, to keep, to stay, to continue*) va boshqa fe'l guruhlariga bo'linadi. Ma'lum distrubitsiya yordamida bog'lovchi fe'l vazifasini o'tab keluvchi *to stand, to lie, to fall, to go, to draw* kabi fe'llarni ham shu guruhga kiritish mumkin.

Agar fe'l leksik ma'nosini yo'qotib, bog'lovchi fe'l vazifasida kelsa, bu jarayon grammatizatsiya (grammatiklashuv) jarayoni deyiladi. Grammatiklashuv

¹ Bo'ronov J.B “Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi.” - T.,1973. “O'qituvchi “ b. 179-180

tufayli bog'lovchi fe'lining ma'nosi umumlashib , abstrsktlashib ketadi va predikativ vazifasida kelgan so'z kesimning asosiy leksik ma'nosini anglatadi.

To be substantive yordamchi fe'li mustaqil fe'l bo'lib kelganda , *bo'lmoq* , *bor bo'lmoq* , *yashamoq* , *hayot kechirmoq* , *turmoq* kabi ma'nilarni anglatadi.

Masalan: *She was in Samarkand during the summer.*

I shall be at home tonight.

It was to bad you couldn't have been there really. (W.S. Maugham).

To be fe'li bog'lovchi fe'l vazifasida kelganda predikativning Grammatik kategoriyalariga bo'lgan aloqasini ko'rsatib keladi , ya'ni zamon , mayl , shaxs son tobe yordamida berilishi mumkin. Bu funksiyada kelgan *to be* fe'li quyidagi so'z turkumlari bilan birikishi mumkin.

I. *to be* + adjective. (sifat). Masalan:

No-no Waston , I well not admit that it is possible.

II. *to be* + noun. (ot). Masalan:

Was not that person the actual criminal .

III.*to be* + pronoun.(olmosh). Masalan:

“Who are they?” asked Hurstwood.

“ What is it mother?” he asked softly.

IV. *to be* + adverb. (ravish). Masalan:

It was long ago.(P.ABRAHAMS)

V. *to be* + numeral. (son). Masalan:

He had left when he was fifteen.

VI. *to be* + participleII (sifatdosh II). Masalan:

“Yes , I was surprised to hear that she had it in her hand when she died.

VII. *to be* + prepositional phrase. (predlogli iboralar). Masalan:

The Duke was is charge of the beer .

VIII. *to be* + participle I. (sifatdosh I). Masalan:

The moment was soothing to his sore spirit.

IX. *to be* + gerund. (gerundiy). Masalan:

My favourite sport is swemming.

X. to be + infinitive. (harakat nomi). Masalan:

The best thing he could do was to get out of here.(P.Abrahams)

To be fe'li infinitive shaklidagi fe'l bilan birikib , modallikni bildiradi. Asosiy fe'l vazifasidagi fe'l *to be* yordamida *avval rejalashtirilganlikni , qat'iy man qilinganlikni , buyurganlikni , majburiylikni* anglatadi. Masalan:

She is not To be late to her lessons. The professor is to deliver lectures on Wednesday.

To be fe'li yordamchi fe'l vazifasida kelsa , asosan fe'lning analitik shakllaridagi fe'ldan majhul nisbat (Passive voice) va davomli aspect (Continuous Aspect) shakllarini yasaydi. Masalan:

The others had been washed and were waiting to be ironed , but she had been too lazy to finish them off.(S.O'. CASEY)

Bu gapda “ *to be* “ fe'li majhul nisbatda qo'llnilib , yordamchi fe'l vazifasida kelyapdi.

He is sleeping in the next room.(Voynich)

It has been raining since morning.

Bu gaplarda “ *to be*” fe'li davomli aspektida qo'llanilib , yordamchi fe'l vazifasida kelyapdi.

To have fe'li ko'p funksiyali fe'llardan hisoblanib, mustaqil, yordamchi, modal fe'llar funksiyalarida keladi. *To have* fe'li pradikmatik shakllar oppozitsiyasini tashkil qiladi. To have fe'li mustaqil leksik ma'noda kelganda, ega bo'lmoq, biror narsasi bor bo'lmoq, egallamoq kabi ma'nolarni anglatadi. Masalan:

She had the body of a girl. (A.BENNET)

(Uning qizlarga xos qomati bor.)

You have no sinse of responsibility.(IBID)

(Siz javobgarlikni sezmaysiz , sizda javobgarlikni sezish degan narsa yo'q.)

We shall soon have a new radioset.

(bizda yaqinda yangi radio priomnik boladi.)

To have fe'li modal fe'l vazifasida ishlatilganda asosiy fe'ldan anglashilgan ish – harakatning yuzaga chiqishi kerakligini , lozimligini , zarurligini gapning Grammatik sub'ekti uchun esa shu ishni bajarish majburiy ekanligini bildiradi. Masalan:

I have to behave with them around .

(men ular oldida o'zimni yaxshi tutishim kerak.)

Why did she have to ask these questions.

(Nima uchun u bu savollarni so'rashga majbur bo'ldi.)

I have to get up early on Mondays.

(Dushanba kuni erta turishimga to'g'ri keladi.)

Bundan tashqari, “ *to have*” fe'li yordamchi fe'l vazifasida ham qo'llaniladi , ya'ni “*to have*“ fe'li yordamchi fe'l vazifasida fe'lning perfekt zamon shaklini yasashda ishlatiladi. Masalan:

The wind had been blowing hard for days.)

One or twice it had surprisingly gone right round to the east , and the clouds had uncouvered the sun.

I shall have translated the article by ten oclock.

To have fe'li fraziologik brikmalarda ham ishlatiladi. *To have* fe'li ot yoki otlashgan fe'llarga artiklli va artiklsiz qo'shilsa , u o'z ma'nosini yo'qotadi va o'zidan keyingi so'zning ma'nisini to'ldirib keladi. Bunday holatlarda u o'zbek tiliga o'zining avvalgi ma'nosida tarjima qilinmasligi ham mumkin.

To have a good time – vaqtni yaxshi o'tkazmoq.

To have a glance – qaramoq.

To have a headache - bosh og'rimoq.

To have an appetete – ishtahasi yaxshi bo'lmoq.

To have a breakfast – nonushta qilmoq.

To have a dinner – ovqatlanmoq.

To have a rest – dam olmoq.

To have a walk – sayr qilmoq.

To have a smoke – chekmoq.

Masalan: “ *Have you had lunch yet.*”

She would have a better time than she had ever had before – she would be happy.

We didn't have supper at home yesterday.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yordamchi fe'llar to be , tohave fe'llari kabi bog'lovchi fe'l vazifasida kelib , ular yo mustaqil ma'nida yoki yordamchi ma'noda qo'llanishi mumkin. Bu fe'llar b so'zlar bilan qo'shilib , asosiy fe'llarning ma'nosini yuzaga chiqishiga xizmat qiladi va o'zlari shu fe'llarning ta'sirida kuchsizlanadi. Bu fe'llar asosan Grammatik ma'nolarni ko'rsatish maqsadida ishlatilganligi uchun ham ular grammatiklashgan fe'llar qatoriga kiradi. Grammatiklashuv to'la va qisman sodir bo'ladi.

To feel fe'li mustaqil fe'l vazifasida sezmoq , bilmoq , tushunmoq , anglamoq , his qilmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Masalan:

He suddenly felt my hand - u mening qo'limni darrov sezdi.

We felt their aim - Biz ularning fikrini tushundik.

To feel bog'lovchi fe'l (link) vazifasida kelganda leksik ma'nosi umulashgani uchun ham o'zbek tiliga tarjima qilinmasligi mumkin. Masalan :

to feel proud – mag'rurlanmoq;

To feel happy – shodlanmoq;

To feel vacout – xomushlanmoq;

To grow fe'li mustaqil fe'l bo'lib , kelganda o'smoq , o'stirmoq , ko'paymoq , oshmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Masalan:

Then suddenly her feet grew painfully cold.

To remain fe'li mustaqil fe'l vazifasida kelganda qolmoq , davom ettirmoq , o'shandayligicha qolmoq , o'z holatini saqlamoq kabi mustaqil leksik manolarni anglatadi. Masalan:

He remained there .

Carrie remained without permission.

To remain fe'li bog'lovchi fe'l vazifasida esa asosan o'zi bog'lab kelayotgan so'zning ma'nosini to'ldirib keladi. Masalan:

When he was finished, his stomach remained bloated with pain.

To get fe'li o'timli fel vositasida kelganda asosan mustaqil fe'l hisoblanib, u o'zbek tilida topmoq, olmoq, ishlab topmoq, sotib olmoq, ega bo'lmoq, biror narsa qilishga majbur etmoq, tushunmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

To get an answer – javob olmoq;

To get a book - kitob olmoq

To get home – uyga yotmoq;

To get someone ready – tayyorlamoq.

Bog'lovchi fe'l vazifasida kelganda mustaqil ma'nosi kuchsizlanib, predikativ so'zning ma'nosini to'ldiradi va bu o'rinda u o'timsiz fe'l bo'lib keladi. Masalan: *Come and get warm.*

Yes, we'll go and get married.

To keep fe'li ham mustaqil, ham bog'lovchi vazifasida kelishi mumkin. Mustaqil fe'l vazifasida kelganda o'zbek tiliga Saqlamoq, ushlab turmoq, amal qilmoq, davom ettirmoq, qo'riqlamoq, ega bo'lmoq deb tarjima qilinadi. Masalan:

Crass kept this for himself: it was just the thing to wrop round one's neck when going to work on a cold morning.

Bog'lovchi fe'l vazifasida kelganda *to keep* fe'li o'timsiz fe'l bo'lib, u gapning sub'ekti biror holatda turganligini, o'z holatini saqlab qolganligini ko'rsatadi. Masalan:

Well, why don't you try to keep quiet for a few minutes and let him get on with it.

Bundan tashqari, *to keep* fe'li kuzatuv bog'lovchi vazifasida ham ishlatilishi mumkin. Bunday hollarda *to keep* + *adject* + *participle* konstruksiyasi ishlatiladi. Bu konstruksiyadagi *to keep* fe'li predikativ bo'lib kelayotgan so'zni biror holatda sub'ekt tomonidan saqlanib turganligini ko'rsatadi.

Masalan: *To keep shut* – yopiq saqlamoq.

To keep him amused while she did her work.

To become fe'li deyarli hamma vaqt bog'lovchi vazifasida kelib , bo'lmoq , bo'lib qolmoq , bo'lib yetishmoq , o'smoq , ulg'aymoq kabi ma'nolarni bildiradi. U ot , sifat , sifatdosh va boshqa so's turkumlari bilan birga ishlatiladi. Masalan:

His grim , deep – lined face had become even sadder and more grave .

It's becoming dangerous to go out alone at night.

To seem fe'li bog'lovchi fe'l vazifasida kelib , o'xshashlik , o'xshab ko'ringanlik , biror holatni qabul qilganlik kabi ma'nolarni bildiradi . Masalan: *When Megan brought in his meals she always seemed to bazy in the house or among the young things in the yard to stay talking long.*

To look fe'li ham mustaqil ham bog'lovchi fe'l vazifasida kelishi mumkin . Mustaqil fe'l vazifasida kelganda qaramoq , ko'rmoq kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan :

He looked at me. (u menga qaradi.)

They all looked at her all the time keenly passionately , instead in everything she did.

Bog'lovchi fe'l vazifasida kelganda birga ishlatilayotgan fe'lning ma'nosini to'ldirib keladi. Masalan:

to look well - sog'lom ko'rinmoq;

to look ill - kasal ko'rinmoq;

to look black – qovog'I soliq ko'rinmoq;

to look blue - g'amgin ko'rinmoq.

She looked vague.

There was a cold bitter taste in the air and the new lighted lamps looked sad.

To go fe'li ham mustaqil sifatida , ham bog'lovchi fe'l sifatida ishlatiladi. Masalan :

And now I think I'll go home to all my dear families and try.

Aunt Gosephine went scarlet with pleasure.

Bu gaplarning birinchisida “ to go “ fe’li mustaqil fe’l vazifasida , ikkinchisida esa bog’lovchi fe’l vazifasida kelayapti.

To fall fe’li ham mustaqil fe’l , ham bog’lovchi fe’l vazifasida ishlatiladi. Masalan:

Then , just before she passed the strolling Frederick , the child feel . The baby , safe under the head of the perambulator had fallen asleep .

To come fe’li mustaqil fe’l vazifasida keladi. Masalan:

It’s better that he come earlier.

Bog’lovchi fe’l vazifasida :

Her son had not only come home , but he had come home a good person.

To appear fe’li mustaqil fe’l sifatida va bog’lovchi fe’l sifatida ishlatiladi. Masalan:

As she approached the doorway the baby appeared there in , insteadily toddling.

Bu gapda “appear” mustaqil fe’l vazifasida kelayapti.

He also appeared very fragile and his childish fase was reproduced much of the dilicate prettiness which she had once possessed.

O’bekcha yordamchi fe’llarning o’ziga xos leksik - grammatik

x u s u s i y a t l a r i

O’zbek tilida ham ingliz tilidagidek yordamchi fe’llar mavjud , lekin o’zbek tilida bunday fe’llar aynan yordamchi fe’llar deb atalmaydi. Ya’ni o’zbek tilida yordamchi funksiyani fe’l shakllaridan ravishdoshda , bog’lama fe’l vazifasini o’tovchi ba’zi bir fe’llarda , to’liqsiz fe’llarda kuzatishimiz mumkin . Yana bunday fe’llarning asosiy vazifalaridan biri ergash gapni bosh gapga bog’lash uchun xizmat qiladi .

Bog’lama fe’l bo’lmagan so’zni fe’lga xos ma’no va vazifaga moslovchi yordamchi fe’l hisoblanadi. Masalan:

Tolib injener bo'ldi , Tolib injener bo'lyapti , Tolib injener bo'lmoqchi.
Gaplarida bo'l yordamchisi injener so'zi bilan qo'llanilib , mayil , zamon , shaxs – son ma'nolarining ifodalanishi uchun xizmat qilayapti.

Bog'lama funksiyasini bajaruvchi birlik o'z leksik ma'nosini qisman saqlashi yoki faqat bog'lama funksiyasini bajarishi mumkin . Shunga ko'ra bog'lamaning ikki turi farqlanadi:

1. Sof bog'lama.
2. Yarim mavhum bog'lama.

Leksik ma'nosini yo'qotgan , sof grammatik funksiya bajaruvchi bog'lama sof bog'lama deyiladi. Masalan:

Edi , ekan to'liqsiz fe'llari: Oqituvchi edi.

Leksik ma'nosini tamomila yo'qotmagan , ma'lum darajada saqlagan bog'lama yarim mavhum bog'lama deyiladi. Masalan: hisoblanadi , deyiladi , bo'l so'zlari leksik ma'nolarini ma'lum darajada saqlagan holda bog'lama funksiyasida qo'llana oladi .¹ Masalan:

Dissertatsiyani yoqladi , fan nomzodi bo'ldi. (H . G'ulom)

Bu yigit fabrikamizning ilg'or ishchilaridan hisoblanadi.

“ Bo'lmoq” fe'li bog'lama vazifasida kelib , “biror holatda bo'lmoq , biror holatga o'tmoq , shunga erishmoq “ kabi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan : *Opam master bo'ldi. Men a'lochi bo'ldim.*

U otlar bilan birikib keladi. U institutni bitirib , o'qituvchi bo'ladi. Karim kasal bo'lib qoldi , doctor uni tuzatdi.

U hozirgi zamon ma'nosi uchun ham kelasi zamon ma'nosi uchun ham qo'llaniladi.

Men injener bo'laman .

(1. Men endi injener bo'laman . 2. Men hozir injenerman.)

Bog'lama vazifasida , bo'l fe'lidan tashqari , boshqa ba'zi fe'llar ham qo'llana oladi. Masalan: *sanamoq , hisoblamoq .*

Ancha kitob keltirildi . Ular hali sanaladi.(mustaqil fe'l.)

Karim aktiv student sanaladi. (bog'lama)

¹ Hojiyev.A “Lingvestik termenlarning izohli lug'ati”.- T.,”oqituvchi “ -1985y

Ko'rinadiki , bu vazifada keladigan fe'llarda leksik ma'no kuchsizlangan bo'ladi. Fe'l shakllaridan ravishdosh gapda bog'lovchi fe'l vazifasida keladi va shu bilan birga fe'lning qandaydir shakli o'rnida qo'llaniladi.¹

Keksa master Kuznetsov o'z shogirtlaridan faxirlanib , u ham yaxshi tilaklar bilan bir ikki so'z aytdi – da , Omonovga o'rin berdi. (Iboxon)

Misoldagi “*faxrlanib*” shakli o'rnida “*faxrlandi – da*” shaklini va “*aytdi – da*” shakli o'rnida “*aytib*” shaklini qo'llash mumkin. Demak , *faxrlanib* shaklidagi -(i)b ravishdosh yasovchisi -di affiksi bilan -da bog'lovchisi xos vazifada qollanilayapti.

To'liqsiz fe'l sifatdosh , ravishdosh va harakat nomlariga birikib, fe'l zamonlarining analitik usul bilan yasalgan shakllarini hosil qiladi. Shuningdek , boshqa so'z turkumlari bilan kelib , bog'lama vazifasini bajaradi. Edi to'liqsiz fe'li boshqa so'z turkumlari bilan kelsa , tuslovchi affiks olib , ot kesimning bog'lama vazifasida keladi. Masalan:

Xaritonov ashillani ham gapni ham qoyil qilar , umuman , juda yoqimtoy yigit edi.

Ekan shakli sifatdosh bilan birga , voqea – xodisaning keyincha ma'lum bo'lganligi , holat , payt , sabab ma'nolarini ifodalaydi va bog'lama fe'l vazifasida keladi. Masalan:

O'ylab qarasa , Ertoyev unga qattiq gapiradigan holatda emas, tili qisiq ekan .

Emish shakli bog'lama vazifasida kelganda eshitganlik , gumon , noaniqlik ma'nolarini bildiradi. Masalan : *Shu erda bir muddat dam olishimiz kerak ,boradigan qishlog'imiz hali ancha olis emish .*

Bundan tashqari , “*demoq*” fe'lidan “*deb*” ravishdoshi yasalganda , “*deb*” ravishdoshi bog'lovchi vazifasida kelib , ergash gaplarning ba'zilarini ya'ni shart , maqsad , sabab ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi.

¹ Abdurahmonov G'.A, Shoabdurahmonov Sh.Sh, Hojiyev A.P “O'zbek tili grammatikasi . Tom I Morfologiya. “O'zbekiston nashriyoti”. - T.,1975y . b.516

Maqsad ergash gapli qo'shma gap qismlarini bog'laydi va buyruq va istak fe'llaridan so'ng kelganda maqsad ma'nosini anglatadi. Masalan:

Shofyor odamlar o'tib ketsin deb , huddi mashinani o'sha panjara eshigi yonida to'xtatdi.

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap komponentlarini bog'laydi. Masalan: *Gavhar muhabbat haqida yozishdan tortingan bo'lishi mumkin , deb sira o'ylamadi.*

Sabab ergash gapli qo'shma gaplarni , masalan:

Hoshimjonning ishlariga qarab , g'o'zalarimiz durust ekan deb , oz bo'lmasa g'aflatda qolay dedim.

Desa bog'lovchi so'zi payt , shart ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi. Masalan:

“Agar davrada kurash tushayotgan polvon raqibiga suyabroq ur desa , polvon emas.

Ergash gaplarni bosh gaplarga bog'lashda fe'lning shaxssiz shakllari muhim rol o'ynaydi. Fe'l shakllari ergash gapning kesimi bo'lib turib , uni bosh gapga biriktiruvchi asosiy Grammatik vositalardan hisoblanadi va ko'pgina ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi. Sifatdoshlar ergash gaplarning kesimi bo'lib kelganda , shaxs , son qo'shimchalarini olmaydi , egalik va kelishik affikslari bilan birga qo'llaniladi. Sifatdoshlar yordamchilar bilan birga kelib , payt , shart , sabab , to'siqsiz , o'lchov – daraja , chog'ishtirish – o'xatish , ravish ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi.

Masalan : -(a)r affiksini olgan sifatdosh ekan to'liqsiz fe'li bilan birga ergash gaplarning kesimi bo'lib keladi . Masalan:

Yo'lchi ahvolni biroz engillashtiradigan bir yo'l ustida o'ylarkan , eshikdan bir kishi kirib keldi.

To'liqsiz fe'lning edi , ekan shakllari bilan birga keladi.

Mard unga yollanib ishlashni taklif qilgan ekan , nomard rozi bo'libdi.

Ravishdoshning -(i)b affiksi yordamida yasalgan shakli turli ergash gaplarni bosh gapga bog'laydi. Masalan:

-guncha shakli orqali yasalgan ravishdosh payt ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi.

Yer to'ymaguncha , el to'ymas .

Ravishdoshning - gach affiksi yordamida yasalgan shakli payt va sabab ergash gaplarning kesimi tarkibida kelib ergash gapni bosh gapga bog'laydi. Masalan:

Biz ipak ishida tolalar chizgach , chin – mochin rassomi aro yo'lda lol.

To'ldiruvchi ergash gapda ham biz fe'lning bog'lovchi fe'l vazifasida kelganini ko'rishimiz mumkin. Masalan:

Men istar edimki, siz biznikiga kelsangiz.

Bo'ronov J.B “O'zbek tilida ham ingliz tilidagi kabi yordamchi fe'llar bor” deb ta'kidlaydi va ularga emoq , bo'lmoq , ko'rinmoq (horg'in ko'rinmoq) , o'xshamoq , tuyulmoq va boshqa fe'llarni kiritadi.¹ O'zbek tilida emoq to'liqsiz fe'li bo'lib uning edi ekan , emish , emas , esa kabi shakllari mavjud. Bu fe'l mustaqil ravishda qo'llanilmaydi. Harakat ma'nosiga ega emas. Ular turli ma'nolarni ifodalaydi va har xil Grammatik vazifalarda qo'llaniladi. Bu fe'l otlar bilan ham fe'llar bilan ham qo'llaniladi. Masalan :

Bog' edi , ishlar edi, go'zal ekan , kelgan ekan .

Ketganmish. Qarasholmas emish

Bo'lmoq fe'li mustaqil fe'l vazifasida yuz bermoq ,voqea bo'lmoq ma'nolarida qo'llaniladi. Masalan:

Kecha majlis bo'ldi.

Ko'makchi fe'l vazifasida -(i)b affiksli ravishdoshlar bilan qo'shilib , ish – harakatni tugallanganligini bildiradi. Masalan: Ayol paxtasini to'kib bo'lguncha , G'ulomjon unga yer ostidan razm solib turdi.

U ot kesim tarkibida bo'g'lama fe'l vazifasida keladi . Masalan:

Ortoq Ahmedov zavodga direktor bo'ldi. Bu kishi mening o'qituvchim bo'ladilar.

¹ Bo'ronov J.B “Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi.”. - T.,1973. “O'qituvchi “ b.180

Ko'rinmoq , o'xshamoq fe'llarini ham yordamchi fe'l vazifasida kelganligini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin. Masalan:

To'qay orasiga suqilib kirgan qumlikdan o'tishgach , olisda hali barg yozmagan daraxtlarning novdalari chuvalashgan qizimtir ipdek bo'lib ko'rindi.

G'ira – shira yorishib kelayotgan cho'l tongida bu alnga juda g'alati bo'lib ko'rinardi.

U qorong'uda notanish kishi orqasidan borarkan , ikki tizzasida mador qolmaganidan yurayotganga emas , sudralayotganga o'xshadi.

X u l o s a

Ingliz va o'zbek tillarida yordamchi fe'llarni tadqiq qilish jarayonida har ikkala tillardagi yordamchi fe'llarning ahamiyatini , qay darajada mavjud yoki mavjud emasligini , ularning har ikkala tildagi rolini , sintaktik , leksik – semantik , leksik – grammatik qirralarini ochishga muvaffaq bo'ldik va bu hususida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi.

1. Fe'l harakat ma'nosini bildiruvchi so'zdir. Shu jumladan , biz o'z tadqiqotimizda ingliz va o'zbek tillarida fe'llarning morfologik , leksik – semantik , leksik – grammatik , sintaktik hususiyatlariga ko'ra boshqa so'z turkumlaridan ajralib turishini ko'rib chiqdik. Fe'llar gapda ma'lum bir sub'ekning harakatini ifodalab keladi.

2. Fe'l murakkab kategoriyalarga boy so'z turkumi hisoblanadi. Fe'llarning grammatik kategoriyalari fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarning sintetik yoki analitik shakllarini o'zaro qarama – qarshi qo'yish vositasida ifodalanadi.

3. Tadqiqotimiz natijasida shuni ko'rdikki, o'zbek tilida fe'l sintaktik jihatdan kesim vazifasida gapning oxirida kelsa ingliz tilida esa ikkinchi o'rinda kelishini kuzatdik. Masalan:

I read an intiresting book.

Men qiziqarli kitob o'qidim.

4. Ingliz tilida yordamchi fe'llar salmoqli o'rin egallaydi. Biz ularning sintaktik hususiyati jihatidan mustaqil , yordamchi , bog'lovchi , modal fe'l vazifasida kelishini ko'rib o'tdik. Yordamchi fe'llarning ba'zilari asosan so'zlarni bir – biriga bo'glash uchun xizmat qiladi.

5. O'zbek tilida esa bunday fe'llar aynan yordamchi fe'llar deb atalmaydi. Biz o'zbek tilida yordamchi fe'llarning funksiyasini fe'l shakllaridan ravishdoshga , bog'lama fe'l vazifasini o'tovchi ba'zi fe'llarda , to'liqsiz fe'llarda kuzatishimiz mumkin.

6. Biz yuqorida aytib o'tgan grammatikalizatsiya hodisasida ingliz va o'zbek tillaridagi yordamchi fe'llarni bajargan vazifasini aniq ko'rib o'tdik.

Masalan: *I feel happy* – Men xursandman.

Bu gapda *to feel* (his qilmoq) fe'li o'z ma'nosini yo'qotib ko'makchi fe'lga ya'ni grammatik unsurga aylangan. Masalan :

Sobirga qaraganda Bobir aqilliroq edi.

Bu gapdagi qaraganda so'zi ham o'zining leksik ma'nosini yo'qotgan holda , modal fe'l vazifasida kelgan , ya'ni grammatik unsurga aylangan.

Mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'z o'z leksik ma'nosidan voz kechib,yordamchi so'zga aylanadi. Misol uchun:

Aytganicha, aytmoqch

Aslida "aytmoq" fe'li bo'lgan bu so'zlar o'z leksik ma'nolaridan soqid holda, eslash ma'nosini ifodalab keluvchi kirish so'zga aylangan.

He had his leg broken.- Uning oyog'I sindi.

Bu gapda ham "to have" fe'li "to break" fe'lining Sifatdosh II shaklini yasashda ko'makchi fe'l vazifasini bajarmoqda, ya'ni grammatikalizatsiyalashgan.

He has to help us.- U bizga yordam berishi kerak.

„to have“ fe'li „to“ yordamchisi orqali modal fe'l ma'nosida qo'llaniladi.

Sh is a student.- U talabadir.

"to be" fe'li grammatikalizatsiga uchrab, ko'makchi fe'lga aylanadi va bog'lama vazifasida qo'llaniladi. Bunda "to be" ot bilan birga qo'llanilib, so'larni bir-biriga bog'lashda ishtirok etadi.

Akam menga qarab qotib qoldi. Inqirozga qarab yuz tutmoqda.

Bu misollarda keltirilgan „qarab“ so'zlarining ma'nolari va vazifalari turlichadir.Qarab so'zi birinchi gapda o'zining leksik ma'nosiga ega,lekin ikkinchi gapda ko'makchi vazifasida kelayotganligi uchun leksik ma'noga ega emas, u faqatgina yo'nalishni ifodalasmoqda.

Ayrim mustaqil ma'noli fe'llar o'z ma'nolarini yo'qotib, ko'makchi fe'l vazifasini bajaradi. Masalan:

Shaxlo opa o'lini qo'lidagi erining kamari bilan savalay ketdi.

Shuhrat has falled in love of you.- Shuhrat seni sevib qolgan.

U kabi brikuvlar aslida soʻz brikmasi boʻlgan, hozir esa ular tarkibidagi “ketdi“, “qolgan“ feʼllari mustaqil maʼnoga ega emas, shu tufayli ular analitik shakl hisoblanadi. Agar grammatikalizatsiya hodisasiga uchraydigan feʼl yordamchi feʼl maʼnosida keladigan boʻlsa boshqa bir feʼlni boshqarib keladi yoki mustaqil feʼl maʼnosida keladigan boʻlsa maʼlum artiklni olib keladi. Bu keltirgan mulohazamiz faqat ingliz tili grammatikasiga xosdir. Masalan quyidagi misollarga eʼtibor qilaylik:

I have a book. – Mening kitobim bor.

I have finished my book. – Men kitobimni (oʻqib) tugatdim

Lekin, bizning tadqiqot obʼektlaridan biri hisoblangan oʻzbek tiliga esa bunday qarash maqsadga muvofiq emas. Negaki, oʻzbek tilida grammatikalizatsiya hodisasiga uchraydigan feʼl yordamchi feʼl maʼnosida keladigan boʻlsa, holat holini anglatuvchi *-ib* qoʻshimchali boshqa bir feʼlni boshqarib kelsa, mustaqil maʼnoda kelganda esa hol, toʻldiruvchi kabilarni boshqarib kelishi mumkin. Masalan: *U hovlini supurib qoʻydi. U kitobni stol ustiga qoʻydi.*

Bu misollar orqali keltirilgan izohlar ingliz va oʻzbek tillaridagi grammatikalizatsiya hodisasida uchraydigan sintaktik oʻzgarishlardan biri boʻlib hisoblanadi.

Umuman olganda ingliz va oʻzbek tillari yordamchi feʼllarini kuzatish jarayonida shining guvohi boʻldikki, ular ikki tilda ham umumiy va oʻziga xos xususiyatlariga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. R u s t i l i d a g i m a n b a l a r :

1. Бархударов Л.С. и др. “Грамматика английского языка”.- М., 1963.
2. Качалова К.Н. Израилевич Е.Е. “Практическая грамматика английского языка”. –Бишкек, 2004. 667 стр.
3. Иванова И.П., Бурлакова В.В., Почевцов Г.Г. “Теоретическая грамматика современного английского языка”.- М., 1981. 284 стр.

II. O‘ z b e k t i l i d a g i m a n b a l a r :

4. Бўронов Ж, Хошимов Ў, Исматуллаев Х. “English Grammar”, “Инглиз тили грамматикаси”, “Ўқитувчи” нашриёти. - Т.,1974. 351 б.
5. Бўронов Ж.Б. “Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси” “Ўқитувчи” нашриёти. –Т.,1973. 283 б.
6. Турсунов У, Мухторов Ж, Рахматуллаев Ш “Ҳозирги ўзбек адабий тили”.- Т., 1992.
7. Ғуломов А, Асқаров М. “Ҳозирги ўзбек адабий тили”, -Т ., “Ўқитувчи” нашриёти . 1987 й. 255 б.
8. G‘apparov M. “Ingiliz tili grammatikasi”, -Т., “То‘рон-iqbol” 2006. 355 б.
9. Хожиев А. “Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати”. –Т., “Ўқитувчи” 1985.
10. Ўзбек тили грамматикаси. Том I . Морфология .- Т.,1975. 609 б.
11. Ўзбек тили грамматикаси. Том II .Синтаксис.- Т.,1966. 503 б.
12. Шоабдурахмонов Ш, Асқарова М, Хожиев А, Расулов И, Дониёров “Ҳозирги ўзбек адабий тили”, -Т., “Ўқитувчи” 1980, 446 б.

III. I n g l i z t i l i d a g i m a n b a l a r :

13. Blokh M.U. “A Course in theoretical English grammar”. М., 1983. 379 p.
14. John E, “Warriner Franas Geriffith English Grammar and composition”. – USA,. 1977. 471 p.
15. Ganshina M, Vasilevskaya “English grammar” Foreign languages publishing house .-М.,1954.

16. Gordon E.M. Krylova I.P. "A Grammar of present – day English" –M., "Высшая школа" 1986. 429 p.
17. Il'ish B.A. "The Structure of Modern English". -Ленинград 1971. 365 p.
18. Khaimovich B.S., Rogovskaya B.I., "A course in English grammar". – M., 1967. 297 p.
19. Kaushanskaya V.L. Kovper R.L. "A Grammar of present day English language".- Ленинград 1973. 318 p.
20. Shevchenko M.A, Sitchinava E.Sh, "A manual in Practical grammar" – S., 2004.
21. Randolph Quirk, Sidney Greenbaum, Geoffrey Leech, Jan Svartvik "Comprehensive Grammar of the English language".-Longman Group Ltd 1972 y.

Сноска

1. Бурунов Ж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983. – С. 33.
 2. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (Синтаксис). –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 61-63.
 3. Пыш В.А. The structure of Modern English. – Л.: Просвещение, 1971. – С. 207-208.
- Rayevska N. Modern English Grammar. – Kiev: Kiev State University Publishing House, part I, 1967. – P. 142.
- Kruisinga E.A. A handbook of present-day English. – Pt.II. – English accidence and syntax. I. – Groningen, 1991. – 506 p.

СамДЧТИ инглиз филологияси факултети 4-курс 15-гуруҳ талабаси
Сиддиқова Заринанинг «*Инглиз ва ўзбек тилларида ёрдамчи феъллар
типологияси*» номли битирув малакавий ишига

М У Л О Ҳ А З А

Ушбу битирув малакавий иши ёрдамчи феъллар типологиясига бағишланган бўлиб, инглиз ва ўзбек тилларида ушбу феълларнинг таснифи

баён этилган. Шу билан биргаликда феъл унинг лексик-семантик гуруҳланиши, феълга хос категорияларга ҳам тўхталиб ўтилган.

Битирув малакавий ишига танланган мавзунинг долзарблиги феъл сўз туркуми сифатида доимо тилшуносларнинг диққат марказида бўлган мунозарали ҳолатларга бойлиги билан изоҳланади., ушбу битирув малакавий ишга танланган мавзу ҳам шулар жумласидандир.

Иш белгиланган режа асосида баён этилган. Яъни, ишда кириш, асосий ва хулоса қисмлари мавжуд бўлиб, кириш қисми икки бўлимдан иборат. Биринчи бўлимида феълларнинг лексик-семантик гуруҳланиши, иккинчи бўлимда эса феълга хос умумий масалалар ҳар иккала тил мисолида кўрсатиб ўтилган. Асосий қисмда эса ёрдамчи феълларнинг лексик-грамматик хусусиятлари, улар асосан эга ва комплементни ўзаро боғлашга хизмат қилиши, бундай феъллар ўзининг мустақил маъносини қисман ёки бутунлай йўқотиши каби ҳолатлар баён этилган. Хулоса қисмида эса ишнинг асосий қисмида юритилган фикр ва мулоҳазалар жамланиб, аниқ хулосаларга келинган.

Ушбу ишни баъзи техник камчиликларни инобатга олмаганда талаб доирасидаги битирув малакавий иши деб ҳисоблаб ҳимояга тавсия этиш мумкин.

Илмий раҳбар

“Инглиз лексикаси ва стилистика”

кафедраси ўқитувчиси

Ш.У. Баҳранов

СамДЧТИ инглиз филологияси факултети 4-курс 15-гуруҳ талабаси
Сиддиқова Заринанинг «*Инглиз ва ўзбек тилларида ёрдамчи феъллар*»
номли битирув малакавий ишига

Т А Қ Р И З

Ҳозирги замон тилшунослигида феъл сўз туркуми ўзига хос мунозарали масалаларга эга бўлган сўз туркумларидан бири саналади. Бу ҳолат айниқса қардош бўлмаган тиллар мисолида ўзига хос аҳамият касб этади. Шундай экан, ушбу битирув малакавий иши ўзининг долзарблиги билан ажралиб туради.

Битирувчи ўзининг «*Инглиз ва ўзбек тилларида ёрдамчи феъллар*» номли малакавий ишида феъл унинг лексик-семантик гуруҳланиши, феълга хос категориялар ҳамда асосан боғловчи феъллар бўйича иш олиб борган.

Битиру малакавий иш аниқ режа асосида ёзилган. Иш кириш, асосий ва хулоса қисмларидан иборат бўлиб, феълларнинг лексик-семантик гуруҳланиши, ҳамда феълга хос умумий масалалар ҳар иккала тил мисолида кўрсатиб ўтилган. Ишнинг асосий қисмида инглиз ва ўзбек тилларида бу каби феълларнинг номланиш ҳамда функционал хусусиятларига тўхталиб ўтилган. улар асосан эга ва комплементни ўзаро боғлашга хизмат қилиши, бундай феъллар ўзининг мустақил маъносини қисман ёки бутунлай йўқотиши каби ҳолатлар баён этилган. Бундан ташқари боғловчи феълларнинг бошқа қандай сўз туркумига оид сўзлар билан бирикиб келиши таҳлил қилиб берилган. Битирув малакавий ишнинг хулоса қисмида эса ишнинг асосий қисмида юритилган фикр ва мулоҳазалар жамланиб, аниқ хулосаларга келинган.

Мавзу доирасидаги илмий манбалардан ҳам етарлича фойдаланилган. Ушбу ишдаги айрим имло хатолари ва техник камчиликларни ҳисобга олмаганда талаб доирасидаги битирув малакавий иши деб ҳисоблаб юқори баҳолаш мумкин.

**Инглиз тили ўқитиш методикаси
кафедраси ўқитувчиси**

доц. Усмонов М.У.